



Navoiy viloyatidagi kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2026-yil yanvar-iyun uchun

- I. Navoiy viloyatidagi kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Navoiy viloyatidagi kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026-yilning 1-iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 19 514 tani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 20-apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar birxillashtirildi

Hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025-yil 1-iyul holatiga, birlik	2026-yil 1-iyul holatiga, birlik
Navoiy shahar	4 373	4 864
Zarafshon shahar	1 197	1 367
G'ozg'on shahar	412	441
Konimex tumani	763	907
Qiziltepa tumani	2 441	2 616
Navbahor tumani	1 791	1 847
Karmana tumani	2 969	3 322
Nurota tumani	1 140	1 268
Tomdi tumani	360	414
Uchquduq tumani	592	569
Xatirchi tumani	1 728	1 899

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2026-yilning yanvar-iyunda 1456 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2026-yilning yanvar-iyunda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 511 ta, sanoatda 237 ta, qishloq o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 189 ta, boshqa xizmatlarda 142 tani tashkil etgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni



2026-yilning yanvar-iyunda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 511 ta, sanoatda 237 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 190 tani hamda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 189 tashkil etgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni


	2025-yil yanvar- iyun oylarida, birlik	2026-yil yanvar-iyun oylarida, birlik
Navoiy shahar	448	391
Zarafshon shahar	109	165
G'ozg'on shahar	37	29
Konimex tumani	43	74
Qiziltepa tumani	167	144
Navbahor tumani	128	106
Karmana tumani	313	259
Nurota tumani	77	67
Tomdi tumani	17	39
Uchquduq tumani	35	41
Xatirchi tumani	134	141

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi

2026-yilning yanvar-iyunda YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 14,6% ni tashkil qilib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan 2,0 % ga pasayish kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi


2026-yilning yanvar-iyunda kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng yuqori ulushi qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 95,8%, qurilishda – 69,0 %, xizmatlar sohasida – 58,5 % va sanoatda – 4,2 % ni tashkil qildi.



Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 6 464,6 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 4,2 % ini tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 5 953,0 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 69,0 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 110,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Zarafshon shahri (100,0 %), G'ozg'on shahri (100,0 %) va Xatirchi tumani (90,5 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 15 127,0 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 62,4 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 136,1% ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Nurota tumani (98,3%), G'ozg'on shahri (98,0 %), Zarafshon shahri (87,6 %) va Navbahor tumani (82,7 %), hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi






Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 9 431,5 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 95,8 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 104,2 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Zarafshon shahri, (99,8 %), Uchquduq tumani (99,1 %), Xatirchi tumani (98,6 %), va Tomdi tumanida (98,4%) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 7 537,1 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 89,6 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2025-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 110,0 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Uchquduq tumanida (99,6 %), Tomdi (98,9 %), Qiziltepa tumani (98,5%), va Xatirchi tumanlarida (98,0 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi






Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2026-yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 9 403,4 milliard so'mni yoki umumiy hajmining 58,5 % ini tashkil etdi.
O'sish sur'ati 2025- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 116,9 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Uchquduq tumanida (74,9 %), Qiziltepa tumanida (61,6 %), Navbahor tumanida (61,5 %) ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2026-yilning yanvar-iyunda kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 22,6 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 2,5 % ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-iyunda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Uchquduq tumani, Tomdi tumani, G'ozg'on shahar, 100,0 %, va Zarafshon shahrida 93,9 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi






Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2026-yilning yanvar-iyunda kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 305,3 million AQSH dollarini yoki jami importning 52,2 % ini tashkil etdi.

2026-yilning yanvar-iyunda hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Uchquduq tumani, G'ozg'on shaharlari, 100 % Nurota tumanida 99,1 %,ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi

2026-yilning yanvar-iyunda avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 11,2 % ni tashkil etdi. 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,8 % ni tashkil qildi.


2026-yilning yanvar-iyunda, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 42,4 % ni tashkil etgan bo'lib,

2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,1 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyunda, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 91,9 % ni tashkil etib, 2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,8 % ni tashkil qildi.

2026-yilning yanvar-iyunda, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 89,8% ni tashkil etib,
2025-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,4 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi



V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun a'lo deb baholagan korxonalar ulushi 2022-yilning yanvar-iyunda 23,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026-yilning yanvar-iyunda esa 15,2 % ga yetgan yoki 2022-yilning yanvar-iyunga nisbatan 8,4 birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan korxonalarning ulushi 2022-yilning yanvar-iyunda 62,4 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2026-yilning yanvar-iyunda 63,9 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini o'rtacha deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2022-yilning yanvar-iyunda 12,0 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilning yanvar-iyunga kelib, bu ko'rsatkich 17,5 % ga yetgan, va iqtisodiy vaziyatini yomon deb baholagan korxonalar ulushi 2026-yilning yanvar-iyunda 3,4 % ni tashkil etgan.


Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanish (ko'payish) deb baholagan korxonalar ulushi 2022-yilning yanvar-iyunda 49,2 % ni tashkil etgan bo'lsa bu ko'rsatkich 2026-yilning yanvar-iyunda 50,9 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2022-yilning yanvar-iyunda 47,6 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2026-yilning yanvar-iyunda 48,1 % yoki 0,5 birlikka oshgan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashish (kamayish) deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2022-yilning yanvar-iyunda 3,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilning yanvar-iyunga kelib, bu ko'rsatkich 1,0 % ni tashkil qildi.



Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-iyun oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash

Kichik korxona va mikrofirmalarning 2026-yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini a'lo deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qishloq xo'jaligida 16,9 % ni, sanoatda 15,9 % ni, savdo sohasida 12,7 % ni, xizmatlarda 10,0 % ni va qurilish 9,8 % ni, tashkil etdi.


Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini yaxshi deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoatda, 57,3 % ni, qishloq xo'jaligida 57,1 % ni, xizmatlarda 66,7 % ni, qurilishda 65,0 % ni va savdo sohasida 56,6 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini o'rtacha deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdo sohasida 25,3 % ni, qishloq xo'jaligida 24,7 % ni, va sanoatda 23,2 % ni tashkil etdi.

Hamda iqtisodiy vaziyatini yomon deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdo sohasida 5,4 % ni, qurilishda 4,1 % ni, va sanoatda 3,6 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)



VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/2977/Korxonalar-va-tashkilotlar-soni.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1918/Kichik-biznes-korsatkichlari.pdf>
<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1917/Kichik-biznesning-tarmoglar-bo-yicha-ulushi.pdf>



Tayyorlash uchun mas'ul:

Tadbirkorlik subyektlari
kuzatuvlari bo'limi

Ijrochi:

M.Uzoqov
79 223-57-61

Manzil:

210100, Navoiy sh.,
Amir Temur ko'chasi, 4
